

Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish hamda korrupsiyani aniqlash, baholash va unga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari

Mirhaydarova Dilnovozxon Mirusmonovna

Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti Davlat boshqaruv huquqi magistranti

mhusanov021@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish jarayonida korrupsiyani aniqlash, baholash va unga qarshi kurashish mexanizmlarining huquqiy hamda institutsional asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari, risklarni baholash tizimlari hamda raqamlashtirishning ushbu jarayondagi oʻrni ochib beriladi. Bundan tashqari tezisda: Oʻzbekistonda hududlar kesimidagi korrupsion holat boʻyicha statistikalar bilan tanishasiz


Kalit soʻzlar: davlat boshqaruvi, korrupsiya, samaradorlik, korrupsiyaviy risklar, huquqiy mexanizmlar, institutsional islohotlar, shaffoflik.

Kirish: Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi jamiyat taraqqiyoti, qonun ustuvorligi va fuqarolarning davlat institutlariga boʻlgan ishonchini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi. Biroq davlat boshqaruvida korrupsiya mavjudligi ushbu tizimning izchil faoliyat yuritishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, korrupsiyani aniqlash, baholash va unga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi¹. Korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jazolash choralarini kuchaytirish bilangina cheklanmasdan, balki uning oldini olish, risklarni baholash hamda tizimli monitoring mexanizmlarini joriy etishni ham nazarda tutadi.

Ko'pchilik mutaxassislar korrupsiyaning sabablari siyosiy institutlarning mukammal emasligiga bog'liq, deb bilishadi. Chunki, mamlakatning ichki va tashqi boshqarish mexanizmlari, asosan, ushbu institutlarning qanday ishlashiga bog'liqdir. Bundan tashqari, aholining qonunni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy holatning barqaror emasligi, hukumat institutlarining o'zaro hamkorlikda harakat qilish mexanizmining yo'qligi, mamlakat byurokratik apparatining maqsadlari siyosiy elitaga tobe holda ishlashi, uning mamlakat rivojiga sust holda yondashishi, siyosiy o'yinlarning avj olishi, yuqori turuvchi amaldorlarning tanish-bilish, quda-anda bo'lib hukumatni boshqarishga o'z ta'sirini o'tkazishi, ijro hokimiyatida birlikning yo'qolishi, bitta yo'nalishning bir nechta instansiyalar tomonidan boshqarilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining sustligi va boshqa holatlar korrupsiyaning sabablaridandir. Hozirgi kunda davlat boshqaruvida korrupsiyani aniqlash, bartaraf etish va baholash bo'yicha 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni ¹muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, bu qonun boshqa qonun hujjatlari bilan tizimli uyg'unlashgan bo'lishi va aniq ijro mexanizmlarini o'z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, sohadagi yangi xavflar va tendensiyalarni inobatga olgan holda,

normativ-huquqiy bazaning doimiy ravishda yangilanib borishi muhim.

Asosiy qisim: **O'zbekistonda hududlar bo'yicha korrupsiyada ayblanganlar soni**



1-Ilova. So'ngi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga etkazilgan moddiy zarar miqdori.

Manbalar: <https://anticorruption.uz/>, <https://kun.uz>, <https://www.gazeta.uz>, <https://daryo.uz/>, <https://oz.sputniknews.uz/>

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6145972>

Hudud	Sudlanganlar soni			Farq	
	2022	2023	2024	odam	%
Surxondaryo	302	332	396	64	19,3
Andijon	913	971	882	-89	-9,2
Sirdaryo	459	472	517	45	9,5
Navoiy	311	315	366	51	16,2
Qoraqalpog'iston	380	364	554	190	52,2
Jizzax	267	251	266	15	6,0
Farg'ona	601	525	512	-13	-2,5
Xorazm	164	136	157	21	15,4
Toshkent	363	299	392	93	31,1
Namangan	940	767	877	110	14,3
Qashqadaryo	1005	813	695	-118	-14,5
Toshkent	725	580	697	117	20,2
Buxoro	449	338	400	62	18,3
Samarqand	535	372	643	271	72,8
JAMI	7414	6535	7354	819	12,5

“2024-yilda O‘zbekistonda korrupsion jinoyatlari uchun 7354 kishi jazolandi, bu o‘tgan yilga nisbatan 12,5% ko‘p. Korrupsiyadan zarar ikki baravar oshdi — 2,8 trln so‘m. Sudlanganlar va zararlar soni bo‘yicha Andijon viloyati yetakchi. Eng ko‘p sudlanganlar ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridan bo‘ldi. “O‘zbekistonda 2024-yilda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar va davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdori oshgani qayd etildi. Bu haqda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanov 16-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruzada aytilgan. O‘tgan yili korrupsiya bilan bog‘liq 4649 ta jinoyat uchun 7354 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Sudlanganlar soni 2023-yilga (6535) nisbatan 12,5%, bunday jinoyatlar soni esa 12,6% (4128) oshgan. Eng katta zarar ushbu hududlarga to‘g‘ri keldi: Andijon viloyati — 680 mlrd so‘m (243 mlrd edi),

Toshkent shahri — 332 mlrd so‘m (132 mlrd edi), Namangan — 308 mlrd so‘m (194 mlrd edi) va Sirdaryo viloyati — 289 mlrd so‘m. 2023-yildagi pasayishdan so‘ng, o‘tgan yili korrupsion jinoyatlarning aksariyat toifalarida o‘shish kuzatildi:

- o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toraj qilish — 3587 dan 4189 taga ko‘paydi (+16,8%),
- firibgarlik — 935 dan 1191 ga (+27,4%),
- pora olish — 142 dan 187 ga (+31,7%),
- pora berish — 1009 dan 1086 ga (+7,6%),
- mansab soxtakorligi — 101 dan 106 gacha (+4,9%),
- hokimiyat yoki mansab vakolatni suiiste‘mol qilish — 200 dan 188 taga kamaydi (-6%).

2024-yilda ishga joylashish bilan bog‘liq 123 ta, bank kreditlari berish bilan bog‘liq 292 ta, budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq 640 ta holat aniqlangan².

Manba <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/18/corruption/>

Mavzu nazariyasi: Korrupsiyaning rivojlanib ketishiga davlat sektorida ish haqining xususiy sektorga qaraganda kamligi, davlat tomonidan bozor iqtisodiyotining “tartibga solinishi”, fuqarolarning amaldorlarga bo‘ysunib qolishi, davlatning monopolistik siyosati, iqtisodning barqaror emasligi, iqtisodiy rivojlanishning pastligi ham sabab bo‘lishi mumkin³. Shuningdek, huquqshunos olim G.V.Atamanchukning fikricha, boshqaruv – bu maqsadga muvofiq, ya’ni insonlar tomonidan o‘zlarining ijtimoiy hayot faoliyatlariga ongli ravishda, oldindan belgilangan tartibda tashkil etish va tartibga solish ta’siri bo‘lib, bevosita (o‘zini o‘zi boshqarish shaklida) yoki maxsus tuzilgan organlar va tuzilmalar (davlat organlari, jamoat birlashmalari) orqali amalga oshirilishi mumkin⁴.

² <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/18/corruption/>

³ Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekturodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 14-bet. <https://stat.uz/images/Docs/korrupsiyaga-arshi-kurashish-darslik-2022.pdf>

⁴ Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М., 1997. 29-30-б.лар

Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib aytish mumkinki, davlat boshqaruvi umumiy boshqaruv tizimining muhim qismi sifatida namoyon bo‘ladi va davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Hindistonlik olim Indira Gandi nomidagi milliy ochiq universiteti Akademik maslahatchisi Aarif Maqbool davlat boshqaruvi — bu davlat dasturlari va siyosatlarini boshqarish, ularning jamiyat manfaati uchun samarali bajarilishini ta’minlash san’ati⁵ — deb ta’rif bergan.

Davlat boshqaruvida samaradorlik tushunchasi va uning huquqiy asoslari Davlat boshqaruvi samaradorligi — bu davlat organlari tomonidan yuklatilgan vazifalarning belgilangan maqsadlarga muvofiq, oqilona resurslardan foydalangan holda va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasida bajarilishidir. Huquqiy jihatdan davlat boshqaruvi samaradorligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- qonuniylik;
- shaffoflik va ochiqlik;
- hisobdorlik;
- professionalizm;
- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.

Mazkur tamoyillarning to‘liq amal qilmasligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kuchayishiga olib keladi.

Korrupsiyani aniqlash va baholash mexanizmlarining nazariy asoslari
Korrupsiyani aniqlash mexanizmlari — bu korrupsiyaviy xatti-harakatlarni fosh etishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va texnologik choralar majmuasidir. Baholash mexanizmlari esa korrupsiyaviy risklarni tizimli ravishda aniqlash va ularning ehtimollik darajasini tahlil

⁵ Maqbool, A. (2025, January 6). Introducing Public Administration At 10+2 Level: A Step Towards Empowering Future Leaders. Qaraldi: April 10, 2025, from Kashmir Reader website: <https://kashmirreader.com/2025/01/07/introducing-public-administration-at-102-level-a-step-towards-empowering-future-leaders/>

qilishni nazarda tutadi⁶.

Korrupsiyani aniqlash

mexanizmlarining asosiy shakllari:

- ichki audit va xizmat tekshiruvlari;
- moliyaviy nazorat va deklaratsiya tizimi;
- jamoatchilik nazorati;
- elektron monitoring tizimlari.

Korrupsiyaviy risklarni baholash

Risklarni baholash davlat organlarida qaysi jarayonlar korrupsiyaga eng moyil ekanini aniqlash imkonini beradi. Bu esa resurslarni aynan muammoli sohalarga yoʻnaltirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlari: **Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlari maxsus vakolatli organlar, ichki nazorat boʻlinmalari hamda sud-huquq tizimi faoliyati orqali amalga oshiriladi⁷. Mazkur mexanizmlarning samaradorligi quyidagilarga bogʻliq:**

- vakolatlarning aniq taqsimlanishi;
- mustaqillik darajasi;
- javobgarlik mexanizmlarining real ishlashi;
- raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi.

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni. PF-6013-son, 2020-yil 29-iyun.

Manba: <https://lex.uz/docs/-4875784>

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Qarori. PQ-4761-son, 2020-yil 29-iyun. Manba: <https://lex.uz>

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining sxematik modeli

1-jadval (sxema ko‘rinishida)

Bosqich	Mazmuni	Asosiy vositalar
Oldini olish	Korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish	Risk tahlili, manfaatlar to‘qnashuvi nazorati
Aniqlash	Huquqbuzarliklarni fosh etish	Audit, monitoring, murojaatlar
Baholash	Xavf darajasini aniqlash	Risk indikatorlari
Jazolash	Javobgarlik choralari qo‘llash	Ma’muriy va jinoiy javobgarlik
Monitoring	Tizimli nazorat	Hisobotlar, raqamli tizimlar

Ushbu statistik ko‘rsatkichlar korrupsiyaga qarshi tizimli chora-tadbirlar natijasida aniqlangan holatlar sonining kamayish tendensiyasini modellashtiradi.

Raqamlashtirishning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o‘rni: **Elektron davlat xizmatlari va raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi inson omilini kamaytiradi, shaffoflikni oshiradi hamda korrupsiyaviy risklarni sezilarli darajada pasaytiradi⁸. Xususan:**

- elektron tender tizimlari;
- onlayn litsenziyalash;
- avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-395-son, 2015-yil 9-dekabr. Manba: <https://lex.uz>

Xulosa: Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kompleks ravishda takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Faqat jazolash choralari kuchaytirish emas, balki profilaktika, risklarni baholash, institutsional mustahkamlash va raqamlashtirish orqali korrupsiyaning ildiz omillarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi va jamiyat ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6145972>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/18/corruption/>
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 14-bet. <https://stat.uz/images/Docs/korrupsiyaga-arshi-kurashish-darslik-2022.pdf>
4. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М., 1997. 29-30-б.лар
5. Maqbool, A. (2025, January 6). Introducing Public Administration At 10+2 Level: A Step Towards Empowering Future Leaders. Qaraldi: April 10, 2025, from Kashmir Reader website: <https://kashmirreader.com/2025/01/07/introducing-public-administration-at-102-level-a-step-towards-empowering-future-leaders/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-6013-son, 2020-yil 29-iyun. Manba: <https://lex.uz/docs/-4875784>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4761-son, 2020-yil 29-iyun. Manba: <https://lex.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-395-son, 2015-yil 9-dekabr. Manba: <https://lex.uz>